



"O'ZBEKISTON SANOAT-QURILISH BANKI" AKSIYADORLIK TIJORAT BANKI АКЦИОНЕРНЫЙ
КОММЕРЧЕСКИЙ БАНК "УЗБЕКСКИЙ ПРОМЫШЛЕННО-СТРОИТЕЛЬНЫЙ БАНК"

BOSHQARUV QARORI

Toshkent sh.

№ 294

06.11.2023

Bankning ayrim ichki me'yoriy hujjatlarini yangi to'g'risida

tahrirda qabul qilish

Bank boshqaruvining 2022-yil 2-avgustdagi 94/2-sonli qarori bilan "O'zsanoatqurilishbank" ATBning ekologik va ijtimoiy risklarni boshqarish Tartibi" va Kuzatuv kengashining 2022-yil 25-avgustdagi 2022/18-sonli qarori bilan "O'zsanoatqurilishbank" ATBning ekologik va ijtimoiy risklarni boshqarish siyosati" tasdiqlangan.

Bugungi kunda bankni transformatsiya qilish jarayonida bank faoliyatining barcha yo'nalishlarini xalqaro standartlarga moslashtirish, jumladan ekologik va ijtimoiy risklarni boshqarish tobora dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

Bankda ekologik va ijtimoiy boshqaruv tizimi (ESMS)ni takomillashtirish bo'yicha ETTB tomonidan ajratilayotgan texnik ko'mak doirasida "ENSOR" mustaqil konsalting kompaniyasi jalb etilgan bo'lib, ushbu loyihani muvaffaqiyatli amalga oshirish maqsadida yo'l xaritasi ishlab chiqilgan hamda Loyiha Boshqaruvi ofisining loyihalar portfeliga kiritilgan.

Mazkur yo'l xaritasining 3.1-bandiga asosan "O'zsanoatqurilishbank" ATBning ekologik va ijtimoiy risklarni boshqarish Tartibi" va "O'zsanoatqurilishbank" ATBning ekologik va ijtimoiy risklarni boshqarish siyosati"ni qayta ko'rib chiqish belgilangan.

Ushbu yo'l xaritasida belgilangan vazifalarni o'z vaqtida bajarilishini ta'minlash maqsadida Risk menejment departamenti tomonidan tegishli tarkibiy bo'linmalar hamda "ENSOR" mustaqil konsalting kompaniyasi bilan kelishilgan xolda mazkur ichki me'yoriy hujjatlar yangi tahrirda ishlab chiqilib, o'rnatilgan tartibda Bank boshqaruvi muhokamasiga kiritilgan.

Bank boshqaruvi to'g'risidagi Nizomning 22-bandiga asosan bankning tartib, qoida, Yo'riqnoma va boshqa shakllardagi ichki me'yoriy hujjatlarini tasdiqlash Bank boshqaruvi vakolatiga kiritilgan.

Bank kengashi to'g'risidagi Nizomning 51-bandiga asosan bankning risklarni boshqarish tizimini tashkil etish maqsadida Kengash: O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari talablariga, shu jumladan xavflarni boshqarish va ichki nazorat tizimini shakllantirish bo'yicha me'yoriy-huquqiy hujjat talablariga muvofiq ichki siyosat va boshqa ichki hujjatlarni tasdiqlaydi.

Yuqoridagilarni inobatga olib, Bank boshqaruvi

QAROR QILADI:

1. "O'zsanoatqurilishbank" ATBning ekologik va ijtimoiy risklarni boshqarish siyosati" yangi tahrirda 1-ilovaga muvofiq ma'qullansin va tasdiqlash uchun Bank Kuzatuv kengashi muhokamasiga kiritilsin.

Ushbu Siyosat Kuzatuv kengashi tomonidan tasdiqlangandan so'ng, Bank Kuzatuv kengashining 2022-yil 25-avgustdagi 2022/18-sonli qarori bilan tasdiqlangan

“O‘zsanoatqurilishbank” ATBning ekologik va ijtimoiy risklarni boshqarish siyosati” o‘z kuchini yo‘qotgan deb hisoblansin.

2. "O'zsanoatqurilishbank" ATBning ekologik va ijtimoiy risklarni boshqarish Tartibi" yangi tahrirda 2-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

Mazkur Tartib yangi tahrirda tasdiqlanishi munosabati bilan Bank boshqaruvining 2022-yil 2-avgustdagi 94/2-sonli qarori bilan tasdiqlangan “O‘zsanoatqurilishbank” ATBning ekologik va ijtimoiy risklarni boshqarish Tartibi” o‘z kuchini yo‘qotgan deb hisoblansin.

3.-Risk menejment departamenti direktori (K.Karimov)ga mazkur qaror bilan tasdiqlangan va Bank Kuzatuv kengashi muhokamasiga kiritilgan ichki me'yoriy hujjat tasdiqlangandan so'ng, ularni barcha tarkibiy bo'linmalar va tarmoqlarga yetkazilishini ta'minlasin.

4. Yuridik departament metodologiya boshqarmasi (S.Raxmatullayev) mazkur qaror bilan tasdiqlangan va Bank Kuzatuv kengashi muhokamasiga kiritilgan ichki me'yoriy hujjat tasdiqlangandan so'ng, ularni qonunchilikda belgilangan muddatda Markaziy bankka etkazsin.

5. Mazkur qaror ijrosini nazorat qilish Risk Bosh direktori X.Akbarov zimmasiga yuklatilsin.

Boshqaruv Raisi

Akbarjonov Aziz Akbarjono'g'li



**A.A.Ergashev S.N.Gulturayev X.G.Akbarov Yakubov
Sh.I. B.N.Norxujayev K.I.Karimov**

Yuridik departament
Metodologiya boshqarmasida
2023-yil "15" dekabr da

580 - son bilan

"RO'YXATGA OLINGAN"



**"O'zsoatqurilishbank" ATBning ekologik va ijtimoiy
risklarni boshqarish Tartibi
(Yangi tahrirda)**

I. Umumiy qoidalar

1. Ushbu Tartib O'zbekiston Respublikasining "Banklar va bank faoliyati to'g'risida"gi Qonuni, "Markaziy bank tomonidan tijorat banklarining ichki me'yoriy hujjatlariga qo'yiladigan talablar to'g'risida"gi Nizom (ro'yxat raqami: 916, 2000-yil 5-aprel) va boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarga asosan ishlab chiqilgan.

Mazkur Tartib "O'zsoatqurilishbank" ATB (keyingi o'rinlarda - Bank) tizimida ekologik va ijtimoiy risklarni boshqarish tartibini belgilaydi.

2. Qarz oluvchining rejalashtirilgan yoki amalga oshirilayotgan faoliyati Bankning ekologik va ijtimoiy talablariga muvofiqligi va moliyaviy resurslar bilan ta'minlash shartlarini aniqlash maqsadida ekologik va ijtimoiy risklarni boshqarish "O'zsoatqurilishbank" ATBning ekologik va ijtimoiy risklarni boshqarish Siyosatiga muvofiq amalga oshiriladi.

3. Ekologik va ijtimoiy risklarni boshqarish tizimining asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

Qarz oluvchining loyihalari (faoliyati)ni Bankning ekologik va ijtimoiy talablariga muvofiqligini ta'minlash;

qarz oluvchilar faoliyati bilan bog'liq ekologik va ijtimoiy risklarni aniqlash va minimallashtirish hamda ushbu risklarni boshqarish bo'yicha chora - tadbirlar ishlab chiqish;

qarz oluvchining faoliyati investitsiya obyektining milliy ekologik va ijtimoiy me'yorlarga, xavfsizlik me'yorlariga, shuningdek, eng yaxshi amaliyot va standartlarga muvofiqligini monitoring qilish;

loyihani amalga oshirishda Bankning ishtiroki uchun ekologik va ijtimoiy shartlari bo'yicha tavsiyalar tayyorlash.

4. Qarz oluvchining ishlab chiqarish faoliyati quyidagi tamoyillar asosida amalga oshirilishi kerak:

a) odamlar uchun qulay yashash sharoitlarini ta'minlash;

b) insonning qulay atrof-muhitga bo'lgan huquqiga rioya qilish;

v) ekologik xavfsizlikni ta'minlash uchun tabiiy resurslarni muhofaza qilish va ulardan oqilona foydalanish;

g) xo'jalik va boshqa faoliyat turlarini amalga oshirish to'g'risida qaror qabul qilishda atrof-muhitga ta'sirini baholash majburiyati;

d) xo'jalik va boshqa faoliyat turlarini amalga oshirish va rejalashtirishda hududlarning tabiiy va ijtimoiy-iqtisodiy xususiyatlarini hisobga olish;

e) tabiiy ekologik tizimlarni, tabiat landshaftlarini va tabiat majmualarini saqlash ustuvorligi;

j) xo'jalik va boshqa faoliyatning atrof-muhitga salbiy ta'sirini kamaytirishni ta'minlash;

z) atrof-muhitni muhofaza qilish tadbirlarida qatnashish majburiyati;

i) atrof-muhitni muhofaza qilish sohasidagi qonunlarni buzganlik uchun javobgarlik;

k) tabiatdan foydalanganlik uchun to'lov va atrof-muhitga etkazilgan zararni qoplash;

l) atrof-muhitga salbiy ta'sir ko'rsatishi, fuqarolarning hayoti, sog'ligi va mulkiga tahdid solishi mumkin bo'lgan xo'jalik va boshqa faoliyatni asoslovchi loyihalar va boshqa hujjatlarni davlat ekologik ekspertizasidan o'tkazish majburiyati;

m) ekologik ta'lim tizimini tashkil etish va rivojlantirish, ekologik madaniyatni tarbiyalash va shakllantirish.

5. Bank Qarz oluvchilardan mehnat huquqlari bo'yicha milliy va xalqaro standartlarga rioya qilishni talab qiladi. Mehnat munosabatlari bilan shug'ullanadigan asosiy rasmiy organ Xalqaro mehnat tashkiloti hisoblanadi. Ushbu tashkilot tomonidan mehnat faoliyatidagi asosiy tamoyillar va huquqlar Deklaratsiyasi ishlab chiqilgan va u quyidagi asosiy huquqlarni o'z ichiga olgan:

a) majburiy mehnatning barcha shakllariga barham berish;

b) bolalar mehnatidan foydalanishni taqiqlash;

v) ishga yollash va kasb tanlash masalalarida kamsitishga barham berish;

g) birlashmalar tuzish erkinligi va jamoa shartnomasini tuzish bo'yicha muzokaralar olib borish huquqini haqiqiy tan olish.

6. Qarz oluvchilarning xo'jalik va boshqa faoliyati O'zbekiston Respublikasining Mehnat kodeksiga va asosiy ijtimoiy tamoyillarga muvofiq amalga oshirilishi, shu jumladan:

mehnat resurslari va aholi salomatligini saqlash;

xavfsizlik texnikasi va mehnat gigiyenasiga rioya qilish va qulay ish sharoitini ta'minlash;

xalqaro mehnat tashkilotining me'yoriy hujjatlarining asosiy qoidalarini buzilishiga yo'l qo'ymaslik, shu jumladan ish joyidagi kamsitish, bolalar va majburiy mehnatdan foydalanish, kasaba uyushmalari faoliyatiga cheklovlar va boshqalar;

inson va ishchilar huquqlarini hurmat qilish;

gender tenglikni ta'minlash;

ekologik va ijtimoiy risklarni boshqarish Siyosatida va talablarida shakllangan va Bankning milliy qonunchilik, Xalqaro moliya korporatsiyasi (keyingi o'rinlarda - XMK)ning faoliyat standartlari, Yevropa tiklanish va taraqqiyot bankining (keyingi o'rinlarda - YeTTB) loyihalarni amalga oshirish bo'yicha talablari, "Osiyo taraqqiyot bankining (keyingi o'rinda -OTB) himoya choralari siyosati to'g'risidagi Nizomi"

talablari va boshqa Xalqaro moliya institutlarining (keyingi o'rinlarda - XMI) ekologik va ijtimoiy standartlari talablariga asoslangan boshqa tamoyillari.

II. Ekologik va ijtimoiy risklarni boshqarish tizimi

7. Bankning ekologik va ijtimoiy risklarni boshqarish tizimi kredit va investitsiya faoliyatini, shu jumladan mikromoliya, kichik va o'rta hamda korporativ biznes segmentlarida amalga oshiriladigan kreditlash, savdo, qarz va loyihalarni moliyalashtirish, kafolatlar, lizing, faktoringni qamrab oladi.

Bankning ekologik va ijtimoiy talablari hamda ularning qo'llanilishi

8. Qabul qilingan "O'zsanoatqurilishbank" ATBning ekologik va ijtimoiy risklarni boshqarish siyosatiga muvofiq, kredit berish va investitsiya faoliyatini amalga oshirishda, Bank Qarz oluvchi faoliyatiga quyidagi ekologik va ijtimoiy talablarni qo'llaydi:

moliyalashtirilmaydigan faoliyat turlari ro'yxati (1- ilova);

atrof-muhitni muhofaza qilish, mehnat munosabatlari, mehnatni muhofaza qilish va xavfsizlik texnikasi, ishlab chiqarish va yong'in xavfsizligi, ijtimoiy jihatlar, shu jumladan sog'liqni saqlash va aholi xavfsizligi sohasidagi milliy qonunchilik, manfaatdor tomonlar bilan o'zaro munosabatlar (2-ilova);

ekologik va ijtimoiy risklarni boshqarish sohasida xalqaro miqyosda tan olingan YeTTBning loyihalarni amalga oshirish bo'yicha talablari, "OTBning himoya choralari siyosati to'g'risidagi Nizomi" talablari, XMKning faoliyat standartlari va atrof-muhit muhofazasi, sog'liq va xavfsizlik bo'yicha Jahon banki guruhining qo'llanmalari;

Bank boshqa moliyaviy institutlar hisobidan loyihalarni moliyalashtirilganda, shu moliya institutlarning standartlarini qo'llaydi.

Javobgarlik va vazifalarning taqsimlanishi

9. **Risk menejment departamenti direktori (Ekologik va ijtimoiy risklarni boshqarish tizimi koordinatori)** – Risk menejment departamenti direktori ekologik va ijtimoiy risklarni boshqarish tizimini joriy etish, samarali ishlashi uchun ishlarni tashkil etish, umumiy boshqaruvni amalga oshirish, faoliyatni nazorat qilish, shuningdek ekologik va ijtimoiy risklarni boshqarish tizimi masalalarini Bankning boshqa tarkibiy bo'linmalari va Bank tarmoqlari bilan muvofiqlashtirish uchun javobgardir.

Risk menejment departamenti direktori - ekologik va ijtimoiy risklarni boshqarish tizimi joriy holati va samaradorligi hamda Bankning kredit portfelidagi ekologik va ijtimoiy risklar to'g'risida boshqaruvga ma'lumot va hisobot berish, shuningdek, echilmagan ekologik va ijtimoiy risklarga nisbatan aniqlangan nomuvofiqliklar mavjud bo'lgan holatlarda Kredit qo'mitasi/Bank boshqaruviga qaror qabul qilishda yordam beradi.

Ekologik, iqlim va ijtimoiy risklar bo'limi boshlig'i (Ekologik va ijtimoiy risklarni boshqarish tizimi menejeri) – Ekologik va ijtimoiy risklarni boshqarish tizimini joriy etish, samarali ishlashi uchun bevosita javobgardir. Ekologik va ijtimoiy risklarni boshqarish tizimi menejeri ekologik va ijtimoiy risklarni boshqarish tizimini

samarali ishlashini ta'minlaydi, ishlarni tashkillashtirib, muvofiqlashtirib, faoliyatini nazorat qiladi, hamda ekologik va ijtimoiy risklarni boshqarish tizimini muntazam qayta ko'rib chiqilishini rejalashtiradi. O'z vakolati doirasida A, B+ va B toifadagi loyihalarni ekologik va ijtimoiy risklarini baholashda qatnashadi hamda Bank kredit portfelini baholashda maslahat beradi. Bank rahbariyatiga ekologik va ijtimoiy risklar to'g'risida ma'lumot tayyorlashda yordam beradi.

Bosh mutaxassis - kompleks loyihalar va A toifali loyihalarni ekologik va ijtimoiy baholash (qarz oluvchi tomonidan taqdim etilgan ekologik hujjatlar to'plamini tahlil qilish), kerak bo'lganda tashqi ekspertlarni jalb qilgan holda, shuningdek muhim ekologik va ijtimoiy risklari aniqlangan B+ va B toifali loyihalarni o'tkazish uchun javobgardir. Bank xodimlarini, ekologiya va ijtimoiy risklarni boshqarish tizimi sohasida o'qitishni amalga oshiradi va ekologik va ijtimoiy risklar to'g'risidagi ma'lumotlarni ommaviy axborot vositalarida kuzatib borish va Bank tarmoqlarida yuridik shaxslarga xizmat ko'rsatuvchi biznes menejerlariga ekologik va ijtimoiy risklarni aniqlash va ularni boshqarishi uchun mas'uldir.

Ekologik va ijtimoiy risklarni boshqarish tizimi menejeri va koordinatoriga rahbariyat/boshqaruv/tashqi manfaatdor tomonlarga ekologik va ijtimoiy risklarni boshqarish tizimining joriy holati va kredit portfelining ekologik va ijtimoiy risklari to'g'risida ma'lumot tayyorlashda yordam beradi.

Ekologik, iqlim va ijtimoiy risklar bo'limi mutaxassislari – o'z vakolatlari doirasidagi loyihalarni ekologik va ijtimoiy baholashda ishtirok etadilar va ekologik va ijtimoiy risklarni boshqarish menejeri topshirig'iga binoan boshqa vazifalarni bajarishda qatnashadilar.

Bank tarmoqlarida yuridik shaxslarga xizmat ko'rsatuvchi biznes menejerlari - Qarz oluvchining faoliyati bilan bog'liq bo'lgan kichik va o'rta biznes (keyingi o'rinlarda -KO'B) hamda korporativ biznes (KB) segmentlaridagi B+, B va C toifadagi loyihalarning ekologik va ijtimoiy risklarini qarz oluvchi/tegishli mansabdor shaxslar bilan aloqa qilish, obyektlarga tashrif buyurish, amalga oshirilishi mo'ljallanayotgan loyihaga tegishli hujjatlar, ruxsatnomalarni to'plash orqali aniqlash, B+, B va C toifadagi loyihalarni ekologik va ijtimoiy baholash chek varag'ining to'g'ri to'ldirilgani uchun javobgardir.

Bundan tashqari Bank tarmoqlarida yuridik shaxslarga xizmat ko'rsatuvchi biznes menejerlari quyidagilar uchun javobgardir:

qarz oluvchining faoliyatini tekshirish (skrining);

nazorat savollar ro'yxatini to'ldirish va ekologik va ijtimoiy risklarni boshqarish tizimi tartibiga asosan o'z vakolati doirasida loyihalarni tasdiqlash bosqichida ekologik va ijtimoiy risklar to'g'risida xulosa tayyorlash;

biznes departamentlari, kredit qo'mitasining so'rovlariga binoan qarz oluvchi faoliyatining ekologik va ijtimoiy jihatlari to'g'risidagi qo'shimcha ma'lumotlar to'plash va taqdim etish;

ekologik va ijtimoiy chora - tadbirlar rejasini ishlab chiqish va Qarz oluvchi bilan kelishish (zarur bo'lgan hollarda).

Kreditlarni boshqarish bo'linmalari xodimlari quyidagilar uchun javobgardir:

Qarz oluvchining faoliyatini Bankning ekologik va ijtimoiy talablariga muvofiqligini monitoring qilish.

Kredit tahlilchilari/anderrayting rahbari - Qaror qabul qilish uchun ekologik hujjat (Ekologik ekspertiza xulosasi) hamda C toifali loyihalarni ekologik va ijtimoiy baholash chek varag'ining mavjudligini tekshiradi.

Mintaqaviy menejer/kichik va o'rta biznes rahbari/anderrayting rahbari/kredit qo'mitasi Qarz oluvchining faoliyati/kredit loyihasining ekologik va ijtimoiy risklar to'g'risidagi xulosani hisobga olgan holda, kredit ajratish va moliyalashtirish shartlari to'g'risida, belgilangan javobgarlik darajasiga muvofiq qaror qabul qiladi.

Bank boshqaruvi - "O'zsanoatqurilishbank" ATBning ekologik va ijtimoiy risklarni boshqarish siyosati"da belgilangan ekologik va ijtimoiy javobgarlik bo'yicha qabul qilingan majburiyatlar bo'yicha javobgardir.

Bank boshqaruvi Qarz oluvchilar uchun Bankning ekologik va ijtimoiy talablari va shartlarini belgilaydi. Bank tarmoqlarida yuridik shaxslarga xizmat ko'rsatuvchi biznes menejerlar, Risk menejment departamenti mas'ul xodimlari tomonidan hal etilmaydigan tranzaksiyaga bog'liq ekologik va ijtimoiy muammolar va kelishmovchiliklar aniqlangan taqdirda Bank boshqaruvi aniqlangan ekologik va ijtimoiy riskni kamaytirish uchun, bitimni bekor qilishgacha yoki mavjud kredit shartnomasini bekor qilishgacha bo'lgan tegishli harakat tartibini belgilaydi.

Bank kengashi – Bankning ekologik va ijtimoiy strategiyasini belgilaydi va ekologik hamda ijtimoiy risklarni boshqarish siyosatini ma'qullaydi. Ekologik va ijtimoiy siyosat qoidalarini amalga oshirishni va uning samaradorligini nazorat qiladi. Ekologik va ijtimoiy risklarni boshqarish tizimini samarali ishlashi to'g'risidagi ishonchli ma'lumotlar va portfelning ekologik va ijtimoiy risklari asosida qaror qabul qilishni ta'minlaydi.

Yuridik departament har bir bitim bo'yicha kredit shartnomalariga (chakana kreditlashdan tashqari) Bankning ekologik va ijtimoiy talablari kiritilishini ta'minlaydi. Yuridik departament Qarz oluvchi tomonidan shartnomaning ekologik va ijtimoiy qoidalarini buzganligi yoki yuqori rahbariyat tomonidan choralar ko'rilishini talab qiladigan majburiyatlarni buzganligi to'g'risida xabar berish/tasdiqlash uchun javobgardir.

Biznes departamentlari mutaxassislari kredit masalalari bo'yicha Ekologik va ijtimoiy risklarni boshqarish tartibi doirasida talab qilinadigan hujjatlar va xulosalarning mavjudligini ta'minlash va nazorat qilish uchun javobgardirlar.

Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari bilan ishlash boshqarmasi mutaxassislari ekologik va ijtimoiy risklarni boshqarish tartibida belgilangan shikoyatlarni ko'rib chiqish mexanizmi uchun javobgardir.

Xodimlarni boshqarish departamenti Risk menejment departamenti bilan birgalikda Bank xodimlarini ekologik va ijtimoiy risklarni boshqarish tizimi sohasida o'qitishni tashkil qiladi va o'tkazadi, o'quv dasturlari va o'quv seminarlarini o'tkazish uchun mutaxassis maslahatchilar ro'yxatini shakllantiradi.

Ichki audit departamenti mutaxassislari ekologik va ijtimoiy risklarni boshqarish tizimini amalga oshirish samaradorligini baholash, ma'lumotlarni to'plash va qayd etish uchun javobgardir.

Bank ekologik va ijtimoiy masalalar bo'yicha malakali maslahatchilarning ro'yxatiga ega bo'lishi va yuritishi kerak, ular zarur hollarda murakkab loyihalarni (A toifali) ekologik va ijtimoiy baholashda qatnashishi mumkin. Tashqi maslahatchilar YeTTBning loyihalarni amalga oshirish bo'yicha talablari, "OTBning himoya choralari siyosati to'g'risidagi Nizomi" talablari, XMK faoliyat standartlari va boshqa XMIlarning ekologik va ijtimoiy standartlarini qo'llash bo'yicha bilim va amaliy ko'nikmalarga ega bo'lishlari kerak.

Kredit buyurtmalari va investitsion loyihalarni ekologik va ijtimoiy baholash tartibi

10. Mazkur Tartib kredit buyurtmalarini ko'rib chiqish va baholash jarayonining bir qismi bo'lib, A, B+, B va C toifadagi loyihalar uchun farq qiladi. Tartib quyidagi asosiy bosqichlarni o'z ichiga oladi:

1 - bosqich: Qarz oluvchining faoliyatini oldindan tekshirish (istisnolar ro'yxatiga muvofiqligi, Bank obro'siga putur etkazuvchi risklar mavjudligi, ko'mir bilan bog'liq faoliyatni amalga oshirishi). Agar moliyalashtirish Xalqaro moliya institutlari hisobidan amalga oshirilgan taqdirda, qarz oluvchining faoliyati Bankning istisnolar ro'yxati (moliyalashtirilmaydigan faoliyat turlari ro'yxati bo'yicha) va Xalqaro moliya institutlari bilan tuzilgan kredit shartnomalarida ko'rsatilgan istisnolar bo'yicha tekshirish;

2 - bosqich: Loyihalarni ekologik va ijtimoiy risklar va ta'sir darajasiga qarab toifalash (A, B+, B va C) (chakana kreditlash segmentidan tashqari);

3 - bosqich: Qarz oluvchining faoliyatini ekologik va ijtimoiy baholash hamda qarorlar qabul qilish, shu jumladan:

tartibga asosan belgilangan loyiha toifasiga muvofiq ekologik va ijtimoiy risklarni baholashni o'tkazish, loyihaning ekologik va ijtimoiy risklari to'g'risida xulosa tayyorlash va kerak bo'lganda tuzatish tadbirlari rejasini tuzish;

qarz oluvchi faoliyatining ekologik va ijtimoiy risklar to'g'risidagi xulosani ko'rib chiqish, kredit ajratish va moliyalashtirish shartlari to'g'risida qaror qabul qilish;

ekologik va ijtimoiy shartlar va majburiyatlarni tayyorlash va ularni kredit shartnomasiga kiritish.

4 - bosqich: Qarz oluvchining ekologik va ijtimoiy ko'rsatkichlarini monitoring qilish.

1 - bosqich: Qarz oluvchining faoliyatini oldindan tekshirish (istisnolar ro'yxatiga muvofiqligi, obro'ga putur etkazuvchi risklar mavjudligi, ko'mir bilan bog'liq faoliyatni amalga oshirishi).

Kredit olish uchun ariza qabul qilingandan so'ng, Bank tarmoqlarida yuridik shaxslarga xizmat ko'rsatuvchi biznes menejerlari potensial mijoz/Qarz oluvchining faoliyatini istisnolar ro'yxatiga muvofiqligi va o'tmishdagi jiddiy mojarolar va Bank obro'siga putur etkazuvchi risklar mavjudligi bo'yicha tekshirish o'tkazadi. (Ilova 1) Agar moliyalashtirish Xalqaro moliya institutlari hisobidan amalga oshirilgan taqdirda, qarz oluvchining faoliyati Bankning istisnolar ro'yxati (moliyalashtirilmaydigan faoliyat turlari ro'yxati bo'yicha) va Xalqaro moliya institutlari bilan tuzilgan kredit shartnomalarida ko'rsatilgan istisnolar bo'yicha tekshiriladi. (Ilova 4.2.)

Agar Qarz oluvchi tomonidan istisno ro'yxatiga kiritilgan faoliyatni amalga oshirish niyati bo'lsa, u holda ariza bekor qilinadi va Qarz oluvchiga moliyaviy resurslarni taqdim etishning iloji yo'qligi to'g'risida xabar beradi. Shuningdek, bu bosqichda Bank tarmoqlarida yuridik shaxslarga xizmat ko'rsatuvchi biznes menejerlar Qarz oluvchining ko'mir sanoati bilan bog'liq loyihalarda ishtirok etayotganligini tekshiradi. Agar Qarz oluvchi ko'mir sanoati bilan bog'liq tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirmoqchi bo'lsa, Bank tarmoqlarida yuridik shaxslarga xizmat ko'rsatuvchi biznes menejerlar bunday loyihalarni moliyalashtirish uchun cheklovlar mavjudligi bo'yicha Risk menejment departamenti mutaxassislari bilan maslahatlashishi kerak.

Shuningdek, Bank tarmoqlarida yuridik shaxslarga xizmat ko'rsatuvchi biznes menejerlari qarz oluvchining oxirgi yillardagi faoliyatini jiddiy ekologik va ijtimoiy muammolar, obro'si bilan bog'liq risklar mavjudligini tekshirishi kerak. Ahamiyatli ekologik va ijtimoiy muammolar aniqlanganda Bank tarmoqlarida yuridik shaxslarga xizmat ko'rsatuvchi biznes menejerlari aniqlangan risklarning ahamiyati va maqbulligi hamda ularni minimallashtirish imkoniyati to'g'risida qaror qabul qilish uchun Risk menejment departamenti mutaxassislari bilan maslahatlashishi kerak.

2 - bosqich: Loyihalarni ekologik va ijtimoiy risklar hamda ta'sir darajasiga qarab toifalash (A, B+, B va C).

11. Qarz oluvchining faoliyatini ekologik va ijtimoiy tekshirish o'tkazgandan so'ng, ko'rib chiqish uchun kelib tushgan barcha arizalar ekologik va ijtimoiy risk darajasi bo'yicha oldindan toifalanadi.

Loyihalarni ekologik va ijtimoiy risklar hamda ta'sirlar darajasiga ko'ra toifalash ekologik va ijtimoiy baholashga yondashuvni aniqlash va ijtimoiy hamda ekologik ta'sirni baholash uchun zarur vakolatlarga ega bo'lgan mutaxassislarni jalb qilish va ularni minimallashtirish choralarini rejalashtirish imkonini beradi.

Ekologik va ijtimoiy risklar darajasi bo'yicha loyihalarni A, B+, B va C toifalariga toifalash Bank tarmoqlarida yuridik shaxslarga xizmat ko'rsatuvchi biznes menejerlari tomonidan Risk menejment departamenti mas'ul xodimlarining ko'magi orqali, quyida keltirilgan mezonlar asosida amalga oshiriladi:

A toifa. A toifali (high risk) loyihalar - bu murakkab va uzoq muddatli tabiatga ega, hamda loyiha hududidan ancha katta masofada sodir bo'lishi mumkin bo'lgan, potensial ahamiyatli, misli ko'rilmagan va qaytarib bo'lmaydigan salbiy ekologik va/yoki ijtimoiy ta'sirlarga ega bo'lgan yuqori riskli loyihalar. Shunday qilib, A toifadagi loyihalarga yashirin, ammo yuzaga chiqishi mumkin bo'lgan (potensial) ulkan salbiy ekologik va/yoki ijtimoiy ta'sirga ega bo'lgan keng ko'lamli yangi qurilish loyihalarini va mavjud obyektlar/ishlab chiqarishni keng miqyosda kengaytirish loyihalarini o'z ichiga oladi.

Shuningdek, A toifasidagi loyihalarga, yuqori ekologik va ijtimoiy riski mavjud bo'lgan loyihalar hisoblanib va bu loyihalar amalga oshirilgan taqdirda (1) kichik va mahalliy xalqlarga, (2) madaniy meros obyektlariga, (3) biologik xilma-xillikka, tabiiy ekotizimlarga va tabiiy yashash joylariga ahamiyatli salbiy ta'sir ko'rsatilishi, shuningdek (4) aholi va jamoalarni majburiy ko'chirishga qaratilgan, (5) mahalliy aholining va xodimlarning hayoti va sog'lig'iga xavf mavjud bo'lgan, (6) keng jamoatchilikning noroziligini va ijtimoiy norozilikni keltirib chiqaradi. Bunday loyihalarda ko'rsatilgan ekologik va ijtimoiy risklarni oldini olish, minimallashtirish va boshqarish uchun eng yaxshi amaliyotni qo'llagan holda XMI IESlari va XMK faoliyat standartlariga,

YeTTBning loyihalarni amalga oshirish bo'yicha talablari, "OTBning himoya choralari siyosati to'g'risidagi Nizomi" talablariga muvofiq amalga oshirilishi kerak.

A toifadagi loyihalar uchun Qarz oluvchidan atrof va ijtimoiy muhitga ta'sirini to'la baholash (AIMTB protsedurasi) jarayonini o'tkazilishi talab qilinadi.

Risk darajasi yuqori bo'lgan A toifaga mansub loyihalarni ekologik va ijtimoiy baholashda Bank milliy qonunchilik, YeTTBning loyihalarni amalga oshirish bo'yicha talablari, "OTBning himoya choralari siyosati to'g'risidagi Nizomi" talablari, XMKning faoliyat standartlari va Jahon banki guruhining atrof-muhit muhofazasi, sog'liq va xavfsizlik bo'yicha (umumiy va tarmoqlar bo'yicha) ko'rsatmalari, shuningdek boshqa XMIlarning ekologik va ijtimoiy standartlari talablarini qo'llaydi.

Bank hamkorlari bo'lgan XMIlar A toifadagi loyihalarga katta e'tibor beradi va bunday loyihalarni moliyalashtirishda ma'lum cheklovlar qo'yilishi mumkin.

A toifadagi loyihalarni moliyalashtirishni cheklash shartlari va boshqa qo'shimcha majburiyatlar tegishli bitimlar bilan belgilanadi. Agar loyihaga A toifasi tayinlangan bo'lsa, u "Risk menejment departamenti"ga ko'rib chiqish va A toifadagi loyihalarni moliyalashtirish bo'yicha Bank majburiyatlariga muvofiq kerakli, shu jumladan moliyalashtirishni rad etishgacha bo'lgan harakatlarni amalga oshirish uchun yuboriladi.

Risk menejment departamenti A toifadagi loyihalar bo'yicha XMI tomonidan mavjud ekologik va ijtimoiy cheklovlarning joriy ro'yxatini yuritadi va Bank mutaxassislariga o'z vaqtida ma'lumot berishni ta'minlaydi.

B+ toifa (The risk is above average) loyihalar – o'rtacha yuqori riskli loyihalar hisoblanib, ularning potensial salbiy ekologik va/yoki ijtimoiy ta'siri, obyektning joylashuvi bilan cheklanadi va yumshatish choralari "A" toifasiga qaraganda osonroq ishlab chiqilishi mumkin;

B toifa. B toifali (medium risk) loyihalar – nomuvofiq ijtimoiy va ekologik xarakterdagi mahalliy ta'sirga ega bo'lgan o'rta xavfli loyihalar.

Agar bunday loyihalarni amalga oshirishdan kelib chiqadigan salbiy ekologik va ijtimoiy ta'sirlar ahamiyatsiz bo'lsa va atrof-muhitni muhofaza qilish choralari, mavjud texnologiyalar va texnologik jarayonlardan foydalangan holda, shuningdek amaldagi qoidalar va standartlarga muvofiq tashkiliy tadbirlarni amalga oshirish orqali yo'q qilinsa, kamaytirilsa yoki qoplansa, loyihani B toifasiga kiritish mumkin.

B va B+ toifali loyihalar uchun atrof-muhitga ta'sirini kompleks baholash (atrof-muhit auditi, maxsus tadqiqotlar, atrof-muhit sifatini instrumental o'lchash va boshqalar) har doim ham talab qilinmaydi, ekologik va ijtimoiy risklarni baholash uchun boshqa usullardan ya'ni, atrof muhitga ta'sir ko'rsatilishi to'g'risidagi bayonot loyihasini ishlab chiqish va unga davlat ekologik ekspertizasining ijobiy xulosasini olish hamda baholash instrumentlaridan (5, 6, 7, 8-ilovalar) foydalanish talab etiladi.

Atrof muhitga ta'sir ko'rsatilishi to'g'risidagi bayonot loyihasi har bir loyiha uchun alohida ishlab chiqilishi va Davlat ekologik ekspertizasi (keyingi o'rinlarda - DEE deb yuritiladi)ning ijobiy xulosasiga ega bo'lishi kerak.

C toifa. S toifasi (low risk) ekologik va ijtimoiy risklar minimal bo'lgan yoki ushbu risklar umuman bo'lmagan loyihalarni o'z ichiga oladi. Masalan, C toifasidagi loyihalar dasturiy ta'minotini ishlab chiqish, bankning chakana operatsiyalari, bank, konsalting va boshqa xizmatlarni o'z ichiga oladi. C toifasidagi loyihalar uchun Bank qarz oluvchining

faoliyatini milliy qonunchilik talablariga muvofiqligi bo'yicha minimal tekshiruvdan o'tkazadi.

12. O'zbekiston Respublikasida loyihalarni atrof-muhitga ta'siri darajasini toifalash tizimi yo'lga qo'yilgan bo'lib, unda 4 toifa ko'zda tutilgan:

I toifa (yuqori risk).

II toifa (o'rtacha risk).

III toifa (past risk).

IV toifa (mahalliy ta'sir qilish).

13. Loyihaning ekologik va ijtimoiy risk toifasini aniqlash bo'yicha 4-ilovada keltirilgan dastlabki baholash shaklidan foydalanilib, u Bankning milliy qonunchilik, XMKning faoliyat standartlari, YeTTBning loyihalarni amalga oshirish bo'yicha talablari, "OTBning himoya choralari siyosati to'g'risidagi Nizomi" talablari va boshqa XMIning ekologik va ijtimoiy standartlari talablari asosida ishlab chiqilgan.

Yangilangan skrining va tasniflash shakllariga tushuntirish xati 4.1-ilovada keltirilgan.

Loyihalarni istisnalar ro'yxati bo'yicha tekshirish (skriningdan o'tkazish) va ekologik va ijtimoiy risk toifasini aniqlash shakllari ishlab chiqilgan bo'lib, u quyidagilardan iborat:

Bank, XMK, YeTTB va OTB tomonidan moliyalashtirish uchun taqiqlangan faoliyatlarning yangilangan ro'yxati;

loyihaning ekologik va ijtimoiy risk toifasini aniqlash bo'yicha dastlabki baholash shakllari;

YeTTB liniyasi orqali kreditlash uchun qo'shimcha tasdiqlash talab etiladigan sohalar ro'yxati;

Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 7-sentabrdagi 541-sonli qarori ilovasida keltirilgan davlat ekologik ekspertizasi o'tkaziladigan faoliyat turlari ro'yxati.

14. Loyihaning toifasi aniqlagandan so'ng, Bank potensial qarz oluvchini ushbu Tartibga muvofiq talablar to'g'risida xabardor qiladi. Mas'ul xodimlar qarz oluvchiga atrof-muhitni muhofaza qilish, sog'liqni saqlash, xavfsizlik sohasidagi milliy qonunlar, qoidalar va standartlarga rioya qilish bo'yicha qo'yiladigan talablar, shuningdek eng yaxshi amaliyotga asoslangan qo'shimcha talablar to'g'risida maslahat beradi, Bank tomonidan ekologik va ijtimoiy baholash tartibi va uni o'tkazish uchun talab qilinadigan hujjatlar bo'yicha ma'lumot beradilar.

15. Qarz oluvchi hujjatlarni Bankka ko'rib chiqish uchun va faoliyatini/loyihani ekologik va ijtimoiy baholash uchun hujjatlar ro'yxati (3 – ilova)ga va tayinlangan ekologik va ijtimoiy toifasiga asosan taqdim etadi.

3 – bosqich: Qarz oluvchining faoliyatini ekologik va ijtimoiy baholash va qaror qabul qilish.

16. Tartibda ko'rsatilgan qabul qilingan yondashuvga muvofiq Bank Qarz oluvchining faoliyatini amaldagi ekologik, mehnat va ijtimoiy qonunlariga (shu jumladan xavfsizlik texnikasi qoidalari, chiqarilmalar, tashlanmalar me'yorlari va boshqalar), shuningdek YeTTBning loyihalarni amalga oshirish bo'yicha talablari, "OTBning himoya choralari siyosati to'g'risidagi Nizomi" talablari va XMK faoliyat standartlari, Jahon bankining atrof-muhit muhofazasi, sog'liq va mehnat sohalar bo'yicha ko'rsatmalari,

boshqa XMilarning ekologik va ijtimoiy standartlariga muvofiqligi nuqtai nazardan baholab boradi.

Qarz oluvchining loyihasi/faoliyati ekologik va ijtimoiy baholash loyihalarining har bir toifasi uchun qabul qilingan yondashuvga muvofiq amalga oshiriladi:

A toifadagi loyihalar – Risk menejment departamenti mutaxassislari XMilar tomonidan A toifadagi loyihalarni moliyalashtirishda cheklovlar mavjudligini tekshiradilar va alohida XMilar bilan tuzilgan shartnomalarda belgilangan majburiyatlarga muvofiq (masalan, qaror qabul qilish oldidan A toifadagi loyihalar haqida XMilarni xabardor qilish, moliyalashtirishni rad etish va boshqalar) harakat qilishadi. XMilari tomonidan A toifadagi loyihalarni moliyalashtirishda mavjud cheklovlarni tekshirgandan va XMilari bilan kelishib olingandan so'ng, loyihalarni keyingi baholashni Risk menejment departamenti mutaxassislari amalga oshiradilar, agar zarur bo'lgan hollarda ekologik va ijtimoiy ta'sirlarni va risklarni oldini olish hamda minimallashtirish sohasida maxsus bilimlarga ega bo'lgan tashqi maslahatchilarni jalb qilgan holda amalga oshiriladi. Ba'zi hollarda Bank tashqi maslahatchilarni jalb etmasligi mumkin (Bank mutaxassislari etarli va asosli baho berishga ega bo'lgan hollarda). A toifadagi loyihalar amaldagi tabiat muhofazasi, mehnat va ijtimoiy qonunchilik, ilg'or tajribalar va XMilarining ekologik va ijtimoiy standartlari, YeTTBning loyihalarni amalga oshirish bo'yicha talablari, "OTBning himoya choralari siyosati to'g'risidagi Nizomi" talablari, XMKning faoliyat standartlari va atrof-muhitni muhofaza qilish, sog'liqni saqlash va mehnatni muhofaza qilish bo'yicha Jahon bankining tegishli ko'rsatmalariga muvofiq amalga oshirilishi kerak.

B+ va B toifadagi loyihalarni – baholash, 5-ildavda ko'rsatilgan ekologik va ijtimoiy risklarini baholashning universal shakli (chek list) yordamida Bank tarmoqlarida yuridik shaxslarga xizmat ko'rsatuvchi biznes menejerlar tomonidan, zarur bo'lgan hollarda (ekologik va ijtimoiy risklarni munosib baholash professional bilim va ko'nikmalarni talab qiladigan loyihalar uchun) Risk menejment departamenti mas'ul xodimlarini jalb qilgan holda amalga oshiriladi.

C toifadagi loyihalarni baholash Bank tarmoqlarida yuridik shaxslarga xizmat ko'rsatuvchi biznes menejerlari tomonidan 9 – ilovada keltirilgan baholash shaklidan foydalangan holda, Risk menejment departamenti mutaxassislari ishtirokisiz amalga oshiriladi va tekshirish uchun kredit tahlilchilari/andarrayting rahbariga yuboriladi. Qarz oluvchining faoliyati, baholash bosqichida nomuvofiqliklar aniqlangan taqdirda, kreditlash muddati davomida qonunchilik talablari va ilg'or amaliyotga maksimal darajada muvofiqlashtirish uchun Bank zarur tegishli choralarni ko'rishi kerak.

Ekologik va ijtimoiy baholashni o'tkazish hamda xulosa tayyorlash tartibi

17. Hujjatlarni talab qilish va Qarz oluvchi tomonidan taqdim etilgan hujjatlarni ko'rib chiqish. Bankka taqdim etiladigan hujjatlar ro'yxati 3 – ilovada keltirilgan.

Mustaqil va ochiq manbalarda mavjud bo'lgan ma'lumotlarning tahlili: ommaviy axborot vositalari, internet, tartibga soluvchi organlarning saytlari, mijozning saytidagi va uning yillik hisobotidagi ma'lumotlar, jamoat tashkilotlari va h.k.

Ma'lumotlarni qidirish Qarz oluvchining faoliyati bilan bog'liq bo'lishi mumkin bo'lgan Bank obro'siga ta'sir etuvchi risklarni, ekologik va ijtimoiy muammolarni/qoidabuzarliklarni, jarimalar, hal qilinmagan muammolar va ko'rilayotgan ishlarni aniqlash uchun olib boriladi.

Qarz oluvchining kredit ajratilishi rejalashtirilayotgan loyiha obyektiga tashrif buyurish.

A toifadagi loyihalar obyektiga tashrif Risk menejment departamenti mas'ul xodimlari va kerak bo'lgan hollarda atrof-muhit muhofazasi, mehnat muhofazasi va xavfsizlik hamda ijtimoiy jihatlar bo'yicha XMK faoliyat standartlari, YeTTBning loyihalarni amalga oshirish bo'yicha talablari, "OTBning himoya choralari siyosati to'g'risidagi Nizomi" talablari va boshqa XMilarining ekologik va ijtimoiy standartlarini qo'llash bo'yicha bilim va amaliy ko'nikmalarga ega bo'lgan, Bank tomonidan jalb qilingan tashqi maslahatchilar yordamida amalga oshiradi.

B+ va B toifasiga mansub obyektlarga tashrif Bank tarmoqlarida yuridik shaxslarga xizmat ko'rsatuvchi biznes menejerlari tomonidan, zarur bo'lgan hollarda Risk menejment departamenti mas'ul xodimlarini jalb qilgan holda amalga oshiriladi.

Obyektga tashrif davomida Bank mutaxassisarlari Qarz oluvchidan qonunchilik me'yorlari va standartlariga muvofiqligi, davlat inspeksiyalari va tekshiruvlari natijalari, Qarz oluvchilar tomonidan o'z ehtiyojlari uchun mustaqil ekologik ekspertiza xulosalari va boshqa qo'shimcha ma'lumot hamda tushuntirishlarni oladilar.

Tashrif buyurishni rejalashtirish va tashrif buyurish uchun obyektlarni tanlash riskka yo'naltirilgan yondashuvni hisobga olgan holda amalga oshiriladi va ishlab chiqarishning eng katta hajmi va ekologik va ijtimoiy riski ta'siri bilan tavsiflangan subyektlarga tashrif buyurish majburiydir.

Agar talablar bilan biron bir nomuvofiqlik aniqlansa, Bank xodimlari yoki yollangan tashqi maslahatchilar ekologik va ijtimoiy tadbirlar rejasini, ularni bajarish muddatlari bilan ishlab chiqadilar va uni Qarz oluvchi bilan muhokama qiladilar.

Hisobot va xulosa tayyorlash.

A toifadagi loyihalar uchun tashqi maslahatchi 10 – ilovada keltirilgan shaklda ekologik va ijtimoiy baholash (ESDD) natijalari to'g'risida hisobot va aniqlangan risklarni oldini olish va minimallashtirish uchun ekologik va ijtimoiy tadbirlar rejasini tayyorlaydi. Ekologik va ijtimoiy risklarni boshqarish tizimi koordinatori tayyorlangan (ESDD) hisobotni tahlil qiladi va Kredit qo'mitasi majlisining bayonnomasi loyihasiga kiritiladigan asosiy xulosalarga ega ekologik va ijtimoiy xulosa tayyorlaydi.

B+, B va C toifadagi loyihalarni ekologik va ijtimoiy baholash uchun nazorat varaqalari tegishli ravishda 5, 6, 7, 8 va 9 – ilovalarda keltirilgan, ularda ekologik va ijtimoiy baholash natijalari va Kredit qo'mitasi majlisi bayonnomasi loyihasiga kiritish uchun xulosalar yoziladi.

Xulosa quyidagi ma'lumotlarni o'z ichiga olishi kerak:

- a) qo'yilayotgan talablarga muvofiqligi to'g'risida xulosa;
- b) tartibga solinmagan (yechimini topmagan) ekologik va ijtimoiy risklarning mavjudligi va ahamiyati to'g'risida xulosa, shuningdek Qarz oluvchi tomonidan tegishli ekologik va ijtimoiy risklarni bartaraf etish, minimallashtirish uchun ko'rilgan choralarning adekvatligi va etarliligi to'g'risida xulosa;
- v) ekologik va ijtimoiy tadbirlar rejasiga ehtiyoj;

- g) ekologik va ijtimoiy monitoring o'tkazish bo'yicha takliflar;
 - d) qo'shimcha yoki maxsus ekologik shartlarni kredit shartnomasiga kiritish bo'yicha (mablag'larni berish/o'tkazib berish shartlari va boshqalar);
- Ekologik va ijtimoiy baholash natijalari va xulosa kredit hujjatlar to'plami tarkibida ko'rib chiqish, tekshirish va tasdiqlash uchun biznes departamentiga yuboriladi.

Qarz oluvchining loyihasiga/faoliyatiga mablag' ajratish va moliyalashtirish to'g'risida qaror qabul qilish va kredit shartnomasini imzolash.

18. Kredit olish uchun ariza va hujjatlar tarkibidagi ekologik va ijtimoiy baholash natijalari vakolatli shaxslar va/yoki Kredit qo'mitasi tomonidan ko'rib chiqilishi uchun "O'zsanoatqurilishbank" ATB tizimida kredit va unga tenglashtirilgan operatsiyalarni amalga oshirish Tartibiga muvofiq, qaror qabul qilish va kredit berish shartlarini tasdiqlash uchun yuboriladi.

Yuridik departamenti ma'qullash memorandumida tasdiqlangan kredit shartnomasiga ekologik va ijtimoiy shartlarni kiritilishini ta'minlaydi.

Loyihalarni ekologik va ijtimoiy baholash operatsion jarayonining sxemasi 9- ilovaning 1, 2 – sxemasida keltirilgan.

4 – bosqich. Bankning kredit portfelidagi ekologik va ijtimoiy risklarni monitoring qilish.

19. Loyiha moliyalashtirilgan keyin, Bank qabul qilingan monitoring tartibiga muvofiq Qarz oluvchilarning ekologik va ijtimoiy ko'rsatkichlarini doimiy ravishda kuzatib boradi.

A toifadagi loyihalar uchun ijtimoiy va ekologik ko'rsatkichlarning monitoringi qurilish davrida bir yilda ikki marta va ekspluatatsiya davrida yiliga bir marta Risk menejment departamenti mutaxassislari tomonidan va Bank tarmoqlarining kreditlarni boshqarish bo'linmasi xodimlari bilan birgalikda amalga oshiriladi.

B+ va B toifadagi loyihalarning ijtimoiy – ekologik ko'rsatkichlari bo'yicha monitoring o'tkazish har yili bir marta Bank tarmoqlarining kreditlarni boshqarish bo'linmasi xodimlari tomonidan amalga oshiriladi. Zarur hollarda, Bank tarmog'i rahbarining yozma murojaatiga asosan Risk menejment departamenti mas'ul xodimlari jalb qilinishi mumkin bo'lib, monitoring kredit to'liq qaytarilgunga qadar (loyihaning butun hayot davri davomida) o'tkaziladi. Monitoring natijalari belgilangan tartibda hisobot shaklida rasmiylashtiriladi (13 – ilova).

Qarz oluvchida ekologik yoki ijtimoiy risk yuzaga kelgan taqdirda, Bankda yuzaga kelgan ekologik va ijtimoiy risklarni bartaraf etgunga qadar rejadan tashqari monitoring o'tkazish mumkin.

Ekologik va ijtimoiy monitoring C toifasiga mansub loyihalarda o'tkazilmaydi.

Yozuvlarni yuritish va hujjatlar almashinuvi

20. Ushbu tartibga muvofiq yozuvlar yuritiladi va quyidagi hujjatlar rasmiylashtiriladi:

Ekologik va ijtimoiy tuzatuvchi tadbirlar rejasini o'z ichiga olgan ekologik va ijtimoiy baholash natijalari to'g'risidagi hisobotlar (5, 6, 7, 8 va 10 ilovalarda keltirilgan

shakllarda). Hisobotlarni tayyorlash uchun Bank tarmoqlarida yuridik shaxslarga xizmat ko'rsatuvchi biznes menejerlari va Risk menejment departamenti mutaxassislari javobgardir;

Tegishli darajadagi Kredit qo'mitasi majlisi bayonnomasi tarkibiga kirgan ekologik va ijtimoiy xulosa. Hisobotlarni tayyorlash uchun Bank tarmoqlarida yuridik shaxslarga xizmat ko'rsatuvchi biznes menejerlar va Risk menejment departamenti mutaxassislari javobgardir;

Ekologik va ijtimoiy monitoring natijalari to'g'risidagi hisobot (13– ilova). Hisobotlarni tayyorlash uchun Bank tarmoqlarining kreditlarni boshqarish bo'linma xodimlari, Risk menejment departamenti xodimlari javobgardir;

Biznes departamentlari mutaxassislari ushbu Tartibga muvofiq kredit ma'lumotlarida hujjatlarning mavjudligini nazorat qiladi va ta'minlaydi.

Hisobot va ma'lumotlarni oshkor qilish

21. Ekologik va ijtimoiy risklarni boshqarish tizimini ishlashi uchun mas'ul bo'lim (Risk menejment departamenti) doimiy ravishda yiliga kamida bir marta ekologik va ijtimoiy risklarni boshqarish tizimini ish natijalari to'g'risida Bank boshqaruvi va Kengashi uchun quyidagi ma'lumotlarni o'z ichiga olgan hisobot tayyorlaydi:

a) ekologik va ijtimoiy risklarni boshqarish tizimi ishining muhim natijalari (ekologik va ijtimoiy baholash o'tkazilgan kredit buyurtmalarining umumiy soni, istisnolar ro'yxatiga binoan rad etilganlar soni, ekologik va ijtimoiy masalalar bo'yicha aralashuvlar soni, ekologik va ijtimoiy risklarni boshqarish tizimining XMilar bilan shartnomalar shartlariga muvofiqligi, ekologik va ijtimoiy risklarni boshqarish tizimini joriy etishdagi qiyinchiliklar va ularni bartaraf etish choralari), umumiy va tizimli ekologik va ijtimoiy risklar, ekologik va ijtimoiy risklari yuqori bo'lgan tarmoqlar;

b) kredit portfelining operatsiyalar va tarmoqlar turlari bo'yicha ekologik va ijtimoiy risklar tavsifi, portfeldagi turli toifadagi loyihalar soni (A, B+, B, C);

v) Bank Qarz oluvchilarining faoliyatini va ularning amaldagi ekologik va ijtimoiy talablarga muvofiqligini baholash natijalari;

g) qarz oluvchilarning faoliyati va ekologik va ijtimoiy risklarni boshqarish tizimi bilan bog'liq asosiy kamchiliklar;

d) o'z faoliyatining ekologik va ijtimoiy ko'rsatkichlarni yaxshilash bo'yicha asosiy choralari;

Bankning ma'lumotlarni oshkor qilish siyosatiga muvofiq, Bank yillik hisobotlari Bank tomonidan moliyalashtirilayotgan loyihalarning atrof-muhitga ta'siri, shuningdek ekologik va ijtimoiy yo'naltirilgan loyihalar va ko'zda tutilgan yumshatish choralari to'g'risidagi boshqa ma'lumotlarni o'z ichiga oladi.

Hisobotlarni tayyorlash va topshirish muddatlari, Bank tomonidan yillik hisobotni tayyorlash va topshirish shartlariga muvofiq, kamida yiliga bir marta tayyorlanadi.

XMK, OTB, YeTTB va boshqa Xalqaro moliya institutlari uchun Bankning ekologik va ijtimoiy samaradorlik to'g'risidagi yillik hisobotlar 15-ilovada (**Annual Environmental & Social Performance Report**) ko'rsatilgan yagona shaklda taqdim etiladi.

Shuningdek, ekologik va ijtimoiy samaradorlik to'g'risidagi yillik hisobotlar boshqa XMIlarga kredit shartnomalariga muvofiq, ular tomonidan belgilangan shaklda taqdim etilishi mumkin.

Boshqaruv tizimining samaradorligini baholash va qayta ko'rib chiqish

22. Ekologik va ijtimoiy risklarni boshqarish tizimining samarali ishlashini ta'minlash uchun uni doimiy ravishda ichki baholab borish natijalari asosida va erishilgan natijalarni barqaror rivojlanish sohasidagi belgilangan natijalar bilan taqqoslash natijasiga asosan vaqti-vaqti bilan qayta ko'rib chiqilishi, yangilanishi va o'zgartirishlar kiritishi kerak.

Ichki audit xizmati, Bankning umumiy ichki nazorat tizimining bir qismi sifatida ekologik va ijtimoiy risklarni boshqarish jarayonining samaradorligini baholashda ishtirok etadi.

III. Shikoyatlarni ko'rib chiqish mexanizmi va jamoatchilik bilan aloqalar

23. Bank tomonidan moliyalashtirilgan loyihani amalga oshirish jarayonida manfaatlariga ta'sir ko'rsatishi mumkin bo'lgan barcha manfaatdor tomonlarga murojaat qilish yoki shikoyat berish uchun barcha zarur choralarni ko'radi. Qarz oluvchilar/mijozlar jamoatchilik bilan maslahatlar o'tkazish jarayonida milliy talablar va Bank talablari, shuningdek Bankning talabiga binoan XMIlarning ekologik va ijtimoiy standartlariga muvofiqligini ta'minlashlari shart.

Bankning shikoyatlarni qabul qilish va ko'rib chiqish Tartibi jamoatchilik va manfaatdor tomonlarga Bankning ekologik va ijtimoiy risklarini boshqarish siyosati va/yoki Bank tomonidan moliyalashtirilayotgan loyihalar bilan bog'liq ekologik va ijtimoiy masalalarga oid so'rovlar yoki shikoyatlarni yuborish imkoniyatini berish uchun ishlab chiqilgan.

Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari bilan ishlash boshqarmasi tashqi manfaatdor tomonlarning so'rovlarini qabul qilish, ko'rib chiqish va ularga javob berish uchun javobgardir.

Bank turli xil manfaatdor tomonlarga Bank tomonidan moliyalashtirilayotgan loyihalarning amalga oshirishning ekologik va ijtimoiy jihatlari bilan bog'liq arizalar, so'rovlar yuborish imkoniyatini berish uchun aloqa kanallarini yaratadi.

Agar savol yoki muammo Bank tomonidan moliyalashtiriladigan loyihaga tegishli bo'lsa, avval ushbu muammoni to'g'ridan-to'g'ri loyihani amalga oshiradigan kompaniya bilan muhokama qilish tavsiya etiladi. Agar savol yoki muammo loyihani amalga oshiradigan kompaniya darajasida hal etilmasa, manfaatdor tomonlar Bankka quyidagi ma'lumotlarni taqdim etgan holda yozma ravishda so'rov yuborishi mumkin:

murojaatchining ismi, sharifi va aloqa ma'lumotlari;

muammo (shikoyat bilan bog'liq bo'lgan loyiha va /yoki kompaniya nomi;

muammoning tavsifi, shikoyatlar va ilova qilingan hujjatlar;

murojaatchining xohishiga ko'ra boshqa har qanday ma'lumotlar.

Murojaatlar (davolar, shikoyatlar va so'rovlar) Bank tomonidan qabul qilingan hujjatlarni rasmiylashtirish tartibida majburiy ro'yxatdan o'tkazilishi kerak. Shuningdek, murojaatlar (davolar, shikoyatlar va so'rovlar) ro'yxatdan o'tkazish jurnaliga qayd etiladi.

Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari bilan ishlash bo'linmasi tegishli Bank tarmoqlarida yuridik shaxslarga xizmat ko'rsatuvchi biznes menejerlar va Risk menejment departamenti ishtirokida murojaatlarni (da'volar, shikoyatlar va so'rovlar) kelib tushgan kundan bir oydan oshmaydigan muddatda va qo'shimcha o'rganish va tekshirishlarni talab qilmaydigan murojaatlarni 15 (o'n besh) ish kunidan kechiktirmay murojaatchiga asosli yozma javob tayyorlaydi.

Agar murojaatchining xabari Bankning loyihasi/Mijozi bilan bog'liq jiddiy ekologik va ijtimoiy muammolarni ko'taradigan bo'lsa, tegishli Bank tarmoqlarida yuridik shaxslarga xizmat ko'rsatuvchi biznes menejerlari va Risk menejment departamenti bilan birgalikda darhol qo'shimcha ma'lumotlar olish va qo'shimcha tekshirish o'tkazish uchun mijoz bilan bog'lanadi.

Agar tekshiruv natijasida, mijoz faoliyati/loyiha "O'zsanoatqurilishbank" ATBning ekologik va ijtimoiy risklarni boshqarish Siyosati qoidalariga nomuvofiqligi aniqlansa, Bank tarmoqlarida yuridik shaxslarga xizmat ko'rsatuvchi biznes menejerlar bu fakt haqida andarrayting departamenti rahbariga xabar beradi. Ekologik va ijtimoiy risklarni boshqarish koordinatori mijoz bilan muhokama qilish va mijoz tomonidan amalga oshirish uchun tuzatuvchi ekologik va ijtimoiy harakatlarning qo'shimcha rejasini tayyorlaydi.

Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari bilan ishlash boshqarmasi murojaatchiga ikkinchi javobni yuborishi mumkin va Bank Qarz oluvchi bilan amalga oshirilgan choralar va erishilgan kelishuvlar to'g'risida xabar berishi mumkin (agar bu Bank va Mijoz o'rtasidagi maxfiylik to'g'risidagi kelishuvga zid bo'lmasa).

Ushbu Tartib to'g'risidagi ma'lumotlar Bankning veb-saytida, shuningdek Bankning barcha tarmoqlarida mavjud bo'lishi lozim. Bank o'z veb-saytida ekologik va ijtimoiy masalalar bo'yicha murojaatlarni yuborish uchun aloqa ma'lumotlarini (elektron pochta manzili, pochta manzili va boshqalar) taqdim etadi.

Ijro nazorati departamenti Devonxona bo'limi ushbu Tartibga muvofiq kelib tushgan murojaatlarni qabul qilingan sana, javob jo'natilgan sana va murojaat mavzusi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazadi va bajarilishini nazorat qilib boradi.

Bank Qarz oluvchidan o'z atrof-muhitni muhofaza qilish tizimi doirasida loyiha bilan bog'liq holda yuzaga kelgan, xususan Qarz oluvchining ijtimoiy-ekologik sohadagi faoliyatini samaradorligiga bog'liq manfaatdor tomonlarning shikoyatlarini qabul qilish va hal qilishni osonlashtirish maqsadida, loyihaning xavflari va salbiy ta'siriga muvofiq shikoyatlarni berish va ko'rib chiqish mexanizmi yoki tartibini yaratishni talab qiladi. Shikoyatlarni berish va ko'rib chiqish mexanizmi loyihaning xavf va ta'sir darajasi bilan mutanosib bo'lishi kerak.

Qarz oluvchi, loyiha bo'yicha ijtimoiy-ekologik faoliyati bilan bog'liq bo'lgan tomonlarning tashvish va shikoyatlariga o'z vaqtida javob beradi. Shu maqsadda u shikoyatlarni berish va ko'rib chiqish mexanizmini taklif qiladi va amalga oshiradi, bu esa shikoyatlarni qabul qilish va hal qilish va xavotirlarni engilashtirish, muammolarni bartaraf etish imkoni beradi.

Shikoyatlarni ko'rib chiqish mexanizmi barcha daxldor tomonlar uchun ochiq bo'lgan oshkora va mahalliy va madaniy an'analarni hisobga olgan tartiblarni qo'llash bilan muammolarni tez va samarali hal etishni ta'minlashi kerak va ulardan

foydalanganlik uchun jazoni istisno qilish kerak. Bunday mexanizm, jarayon yoki tartib sud yoki ma'muriy himoya vositalaridan foydalanishni istisno qilmaydi.

Qarz oluvchi, loyiha bilan daxldor bo'lgan (jabrlangan) tomonlarga daxldor jamoalar bilan o'zaro munosabatlar jarayonida shikoyatlarni yuborish va ko'rib chiqish tartibi to'g'risida ma'lumot beradi va shikoyatlarga javoban qabul qilingan choralarni qayd qiluvchi hujjatlar tarkibini keng jamoatchilikka etkazadi.

Shikoyatlar bilan ishlashda mahalliy madaniy an'analarni hurmat qilish ta'minlanadi va uni olib boruvchi xodimlar ehtiyotkorlik, obyektivlik, xushmuomalalik va loyihaga daxldor tomonlarning ehtiyojlari va muammolariga kuyinchaklikni namoyon etadilar.

IV. Favqulodda vaziyatlarga tayyorlik va yong'in xavfsizligi

24. Bank va uning tarmoqlarida xodimlar hamda mijozlarning yong'in xavfsizligini ta'minlash uchun barcha choralar ko'rilishi lozim.

Bank va uning tarmoqlarida avtomatlashtirilgan yong'indan xabar beruvchi va yong'inga qarshi tizim mavjud, favqulodda vaziyatlarda chiqish yo'llari mavjud va Bank xodimlari va mijozlarni evakuatsiya qilish rejalari ishlab chiqilgan va chiqish belgilari mavjud.

Bank va uning tarmoqlari hududi yong'in qalqonlari, yong'inga qarshi vositalar bilan jihozlangan.

Bankda "Xizmat xonalarida sanitariya, gigiyena, yong'in va xavfsizlik choralarini ta'minlash bo'yicha ko'rsatmalar", "Yong'in-texnik vositalarini saqlashga qo'yiladigan talablar" va "Yong'inga qarshi vositalarni ishlatish tartibi" lari ishlab chiqilgan.

Yong'in xavfsizligi va favqulodda vaziyatlarda odamlarni evakuatsiya qilish uchun javobgar shaxslar tayinlangan.

Bank tomonidan "Antropogen, tabiiy va ekologik xususiyatlarga ega bo'lgan favqulodda holatlarning oldini olish va ularga barham berish bo'yicha "O'zsanoatqurilishbank" ATBning fuqaro muhofazasi bo'linmalari bilan Toshkent shahrining Yunusobod tumanidagi favqulodda vaziyatlarning oldini va ularga javob berish tizimi xizmatlari hududiy bo'linmalari bilan o'zaro hamkorlik rejasi" ishlab chiqilgan.

Bankning favqulodda vaziyatlarga tayyorgarligini ta'minlash va yong'in xavfsizligi bo'yicha mas'ul bo'limi Xavfsizlik va axborotlarni muhofaza qilish departamenti hisoblanadi.

Bank va uning tarmoqlari xodimlari tabiiy ofat yoki yong'in sodir bo'lganda o'zini tutish qoidalarini bo'yicha muntazam ravishda o'qish va mashg'ulotlar o'tkazadilar.

V. Yakuniy qoidalar

25. Mazkur Tartib Bank boshqaruvi qarori bilan tasdiqlangan kundan boshlab kuchga kiradi.

26. Mazkur Tartib talablarini buzish qonunchilikda o'rnatilgan tartibda javobgarlikka olib keladi.

27. Bank xodimlari va mijozlari ushbu Tartib bo'yicha ish yuritayotganda korrupsiyaviy harakatlarni sodir qilmaslikka, jumladan:

korruptsiya harakatlarni to'liq taqiqlashi va har qanday moddiy shaklda yordam (bevosita yoki bilvosita) berishi va boshqa afzalliklarni ta'minlashni to'liq rad etadi;

amaldagi qonunchilik, shuningdek uning asosida ishlab chiqilgan Bankning korruptsiyaga qarshi kurashishga qaratilgan ichki hujjatlari talablariga amal qiladi;

jinoyat yoki huquqbuzarlik alomatlari borligi to'g'risida aniq faktlar yoki dalillar aniqlangan taqdirda, bu haqida o'rnatilgan tartibda huquqni muhofaza qilish organlariga xabar beradi.

28. Ushbu Tartib yangi tahrirda tasdiqlanishi munosabati bilan Bank boshqaruvining 2022-yil 2-avgustdagi 94/2-sonli qarori bilan tasdiqlangan "O'zsanoatqurilishbank" ATBning ekologik va ijtimoiy risklarni boshqarish Tartibi" o'z kuchini yo'qotadi.

Kiritildi:

Risk menejment
departamenti direktori



K. Karimov

Kelishildi:

Kredit bosh direktori



B. Mullajanov

Kichik va o'rta biznes
departamenti direktori



Sh. Xalilov

Kreditlarni ma'qullash
departamenti direktori v.v.b.




L. Ramazanov

Korporativ biznes departamenti
direktori




M. Nabiev

"Green banking" departamenti
direktori




N. Xusanov

Kreditlarni boshqarish
departamenti direktori



S. Sanjarov

Komplayens-nazorat
departamenti direktori v.v.b.



A. Yoqubjonov

Yuridik departament
Metodologiya boshqarmasi boshlig'i



S. Raxmatullayev